

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar—iyun

RAQAMLAR:

- 2018 yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari hajmi 21316,6 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 136,0 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga bozor xizmatlari hajmi 8611,4 ming.so'mni tashkil etdi.


Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilma-xildir. Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omildir

Respublikada amalga oshiralayotgan iqtisodiy islohotlar xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, Toshkent shahrida 2018 yil yanvar—iyun oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 21 316,6 mlrd. so'mni tashkil etdi .

Bozor xizmatlarining salmoqli hajmi savdo xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, transport xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, ta'lim sohasidagi xizmatlarda kuzatilmoqda.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 46,7 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning jami korxona va tashkilotlar sonidagi ulushi 72,0% ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida korxona va tashkilotlar jami sonida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, % da




2018 yil yanvar—iyun oylarida Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarining ishlab chiqarish hajmi

	Xajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Xizmatlar (jami)	21 316,6	113,6
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	2 239,3	120,5
Moliyaviy xizmatlar	5 234,2	136,0
Transport xizmatlari	2 637,9	114,2
<i>shu jumladan: avtotransport xizmati</i>	1 622,9	101,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	828,5	105,4
Savdo xizmatlari	5 908,1	100,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	936,4	103,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	817,8	104,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	376,8	116,3
Ijara xizmatlari	409,6	103,7
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	102,9	103,1
Shaxsiy xizmatlar	279,7	100,8
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	536,7	132,9
Boshqa xizmatlar	1 008,7	107,7

2018 yil yanvar—iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (136,0 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (132,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (120,5 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (116,3 %), transport xizmatlar (114,2 %) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarga oshdi.

2018 yil yanvar—iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da




Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamin kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologik xizmatlarning yanada rivojlanishi, xizmatlarning yangi turlarini kengaytirilishi, shuningdek, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilanishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.

2018 yil yanvar—iyun oylarida transport xizmatlari hajmini oshishiga ta'sir qilgan omillaridan biri yo'lovchi va yuklarni tashish xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi hisoblanadi.

Transport xizmatlari umumiy hajmida eng katta ulushni avtomobil transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar (61,5 %) egallaydi. Bu uning harakatchanligi, yuklarni (yo'llovchilarni) yo'lda boshqa transportga qo'shimcha yuklamasdan (o'tkazmasdan) "eshikdan eshikgacha" etkazib berishda qulayligi, transport vositasini harakatlantirishda mustaqilligi bilan izohlanadi.

2018 yil yanvar—iyun oylarida xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi, % da



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush—savdo xizmatlari (27,7 %); moliyaviy xizmatlari (24,6 %); transport xizmatlari (12,4 %); aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (10,5 %); ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (4,4 %); Yashash va ovqatlanish xizmatlari (3,9 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar—iyun oylarida Toshkent shahri bo'yicha tumanlar kesimida xizmatlarining ishlab chiqarish hajmi


	Xajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
Toshkent shahri	21 316,6	113,6
tumanlar:		
Uchtepa	1 097,0	103,1
Bektemir	553,0	104,7
Yunusobod	4 150,6	121,2
Mirzo Ulug'bek	1 836,1	113,6
Mirobod	3 430,7	113,9
Shayxontoxur	2 379,4	105,4
Olmazor	1 088,5	106,9
Sergeli	1 261,0	122,7
Yakkasaroy	1 419,5	106,7
Yashnobod	2 016,0	132,3
Chilonzor	1 956,4	108,6
Tumandan tashqarida	128,6	79,3

Tumanlar o'rtasida eng katta hajm Yunusobod (4 150,6 mlrd.so'm) va Mirobod (3 430,7 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Bektemir (553,0 mlrd.so'm) va Olmazor (1 088,5 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatilmogda.

Tumanlar o'rtasida Yunusobod tumani etakchi o'rinni egallaydi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida Yunusobod tumaning ulushi 19,5 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiyligi hajmida tumanlar bo'yicha eng yuqori ulushlarni Mirobod (16,1 %), Shayxontohur (11,2 %), Yashnobod (9,5 %) va Chilonzor (9,2 %) tumanlari tashkil etadi.


2018 yil yanvar-iyun oylarida Toshkent shahar bo'yicha jami xizmatlar hajmida tumanlarning ulushi (jami hajmga nisbatan), %



Tumanlar o'rtasida eng past ulushlar Bektemir (2,6 %), Olmazor (5,1 %), Uchtepa (5,2 %) va Sergeli (5,9 %) tumanlarga to'g'ri keladi .

2018 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 8611,4 ming.so'mga teng bo'lди. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 111,7 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida tumanlar bo'yicha



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Mirobod tumani – 25408,5 ming.so'm qayd etildi. 2017 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish 111,9 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Olmazor tumantida – 3073,4 ming.so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 105,2 % ni tashkil etdi.

Toshkenr shahar

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul:

Aleshunina O.V.

(71) 230-88-15